

**Sadoqat SHODIYEVA**

Buxoro davlat universiteti  
tasviriy san'at va muhandislik grafikasi  
kafedrası o'qituvchisi

---

**ARXITEKTURA YODGORLIKLARIDA TASVIRIY VA AMALIY SAN'ATNI  
QO'LLANILISHI**

---

*Ushbu maqolada arxitektura yodgorliklarining tarixi va ulardagi tasviriy va amaliy san'atning qo'llanishi haqida qisqacha ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** arxitektura, yodgorlik, san'at, me'morchilik, madaniyat, bino, topilma.

*В данной статье дается краткий обзор истории памятников архитектуры и использования в них изобразительного и прикладного искусства.*

**Ключевые слова:** архитектура, памятник, искусство, архитектура, культура, здание, находка.

*This article gives a brief overview of the history of architectural monuments and the use of fine and applied arts in them.*

**Key words:** architecture, monument, art, architecture, culture, building, find.

**Kirish.** Me'morchilik keng ma'noda inson mehnatining muayyan sohasi sifatida juda qadim zamonlarda paydo bo'lib, kishilarning eng zarur turmush ehtiyojlarini qondirishga qaratilganligi bilan katta ahamiyatga egadir. U insonning turli-tuman amaliy – foydali, ijtimoiy-siyosiy, moddiy, diniy va boshqa ehtiyojlarini qondira oladi. Me'morchilik jamiyatning amaliy-foydali ehtiyojlarini qondirishni o'zining zarur vazifasi va maqsadi qilib olgan.

**Asosiy qism.** Me'morchilik san'ati kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk bosqichlaridayoq paydo bo'lgan. Ibtidoiy odam tabiat kuchlaridan o'zini muhofaza qilish uchun zarurat tufayli oddiy boshpana va chaylalar qurgan. Asta-sekin u qurilayotgan binoning ko'rkam bo'lishiga ham e'tibor qaratib, san'at va go'zallik qonunlari asosida ijod eta boshlagan.

Me'morchilik (lot. Architectura so'zidan olingan) – me'morlik san'ati inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog'liq alohida turidir. Me'morchilik – me'morlik san'ati tarixi, qonuniyatlari, nazariyasi binolarining turi va uslubi, kompozitsiyasi kabi qator masalalarni o'rganuvchi san'at sohasidir.

Me'morchilik jamiyatning ijtimoiy-maishiy va g'oyaviy-badiiy ehtiyojlarga xizmat qiladi. Inson aql-zakovati va mehnati bilan yaratilgan muhit – turli-tuman binolar, inshootlar, shahar va qishloqlar me'morchilik nomi bilan yuritiladi.

Me'morchilik davr o'tishi bilan o'zgara borib, jamiyat taraqqiyotidagi tuzumlarning tub mohiyatini o'zida ifoda etadi. Me'morchilik san'at asari amaliy xizmati bilan bir qatorda ma'lum g'oyaviy-badiiy mazmuni ham ifoda etadi.

Me'morchilik mahsuloti jamiyat moddiy madaniyatining tarkibiy qismini tashkil etadi va ayni vaqtda san'at asari sifatida ham namoyon bo'ladi. Me'morchilik quldorlik jamiyati davrida tez taraqqiy topdi. Jamiyatning sinfiy talabiga munosib uy-joy va jamoat binolari barpo etildi. Me'morchilikning moddiy-texnik va badiiy imkoniyatlari ham kengaydi.

Binolar bezagiga e'tibor ortdi. O'rta asr arxitekturasida (asosan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida) (X-XII asrlar) roman - me'morchilik uslubi, keyinroq (XII-XIV asrlar) Gotika - me'morchilik uslubi alohida o'rin tutadi. Gotika uslubiga xos bo'lgan cho'ziq ravoblardan iborat konstruksiyali binolar ichida ulug'vor ibodatxonalar diqqatga sazovor. Me'morchilik va san'at taraqqiyoti tarixida yorqin sahifa ochgan. Uyg'onish davri – Renessans (XV asr oxiri, XVI asr boshlari) uslubi negizini qadimgi davr klassik me'morchilik tamoyillarini yangi davr talablari asosida tiklash va rivojlantirish tashkil etadi. Klassik qonunlarni uzviy rivojlantirish tamoyillari binolar kompozitsiyasida yaqqol ko'rinadi. XVI asr o'rtalarida binolar haddan tashqari bezakdor qilib quriladigan bo'ldi.

Movarovnahrda XV-XVI asrda Samarqandda va Hirotida me'morchilikning nodir namunalari yaratildi. Hashamatli jamoat binolari qad ko'tardi. Shohi Zinda majmuasidagi maqbaralar, Shahrisabzdagi Ko'kgumbaz, Yassidagi Ahmad Yassaviy maqbaralari shular jumlasidandir. Markaziy Osiyo me'morchiligi va amaliy san'atida asriy an'analar takomillashtirildi. Bu me'moriy obidalarni muhandis-u me'morlari go'zallikning obyektiv qonunlarini chuqur bilganlar va o'z ijodlarida davirning g'oyasi va ruhini bera olganlar. Ularning me'moriy uslubi, naqshi va o'ziga xos bo'yoqlar jilosi beqiyos va takrorlanmasdir.



Tasviriy san'atni o'qitish jarayonida qo'yiladigan ta'limiy va tarbiyaviy maqsad va vazifalar o'quvchilarni tasviriy va amaliy san'at, dizayn, badiiy hunarmandchilik, hamda me'morchilikka oid o'quv materiallari vositasida ularga kompleks ta'sir etishi orqali badiiy intellektual salohiyatlarini shakllantirish va rivojlantirish orqali ijodiy kompetensiyalarini tarkib toptirishdan iborat. O'quvchilar tasviriy va amaliy san'at asoslarini o'rganishga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida o'zlarini ijodkor bo'lishga undaydilar. Ular masalani yangicha, yechimlar orqali o'zlarining ijodkorlik va hayolotlarini, me'yor va uyg'unlik sifatlarini ishga solish malakalarini takomillashtirib boradilar.

Tasviriy va amaliy san'atning tarixiy arxitektura yodgorliklarida o'rganish, arxitektura yodgorliklariga chizilgan ishlarni kuzatish asosida bolalar ming yillar oldin yashab o'tgan ajdodlarimizning turmush tarzi, madaniyati, kiyinishi, ish qurollari, hayvonlar, buyumlarning to'zilishi, shakli, rangi, o'lchovlari haqida tasavvurga ega bo'lalilar. Bu tasavvurlarni amaliy tasviriy-ijodiy faoliyatga jalb etilishi o'quvchilarning arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishi muhim komponenti sifatida ahamiyatlidir.

**Muhokamalar va natijalar.** O'zbek xalqi o'zining qadimgi tasviriy, amaliy, me'morchilik san'ati va madaniyati bilan butun dunyoga dovrug' taratgan. O'zbekiston hududida miloddan oldingi tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik turlari va me'morchilik nihoyatda rivojlangan bo'lib, ularning namunalari Varaxsha, Afrosiyob, Tuproq qal'a, Ayritom, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Xalchayon, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. 5-6 ming yoshli bu san'at asarlarining badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlari ishlaridan farq qilmaydi.

Moziyga nazar tashlasak, qachonlardir So'g'dning chekka amirligidan birining markazi bo'lgan qadimiy Panjikent yodgorliklari sovet arxeologlari tomonidan birmuncha keng va atroflicha o'rganilgan. Bu shaharchaning maydoni katta bo'lmay (hammasi 19 ga), atrofi devor bilan o'ralgan bo'lgan. Shaharda ibodatxonalar, zodagonlarning qasrlari, omborxona va turar joylar bo'lgan. Shahar maydonining g'arbiy tomonidagi ikkita ibodatxona esa sun'iy tepalik ustida bo'lib, old tomoni sharqqa qaratib qurilgan. Ibodatxonaning old qismi kattagina olti ustunli ayvon bilan boshlanib, undan so'ng to'rt ustunli ayvon tomoni ochiq to'rt burchak zal bo'lgan. Undan esa ichkariga "eng muqaddas" xonaga kirilgan. Ayvonga zina orqali yoki maxsus tepaga ko'tarilib boruvchi yo'lak orqali chiqilgan. Bu ibodatxonaning qurilish uslubi va plani Kushon davri me'morligiga juda yaqin. Tomi tekis yopilgan. Yog'ochdan ishlangan ustunlar esa toshdan yasalgan taglikka o'rnatilgan. "Muqaddas xonaga" kiriladigan tomondagi devor ham xarakterli. Bu devorning yon tomonlarida taxmonchalar bo'lib, ularga haykallar qo'yilgan. Devor esa devoriy suratlar bilan bezatilgan. Surat mavzusi motam tutishga bag'ishlangan. Unda yevropoid, mongoloid tipidagi odamlarning aza tutishi ularning xatti-harakatlari orqali ochib berilgan.

Ayvon devorlari bo'rtma tasvir – relief bilan qoplangan bo'lib, afsonaviy maxluq, odam va suv hayvonlari tasviri ishlangan. Ibodatxonaning to'sin va ustunlari ham san'atkor diqqatidan chetda qolmagan. Ular o'yma va rang naqqoshligi bilan pardoqlangan. Panjikentdagi zodagonlarning uylari, ayniqsa, mehmonxona va uyga olib boradigan yo'lakchalar juda bezakdor bo'lgan.

Buxoro vohasidan topilgan Varaxsha hukmdori saroyi qoldiqlari va devoriy suratlar diqqatga sazovordir. Bu saroydagi suratlar ishlanish uslubi jihatidan Panjikent devoriy suratlariga yaqin va deyarli u bilan bir vaqtda, taxminan, VII–VIII asrlarda ishlangan. Varaxsha devoriy suratlarida ichida ov manzarasi yaxshi saqlangan. Bu suratda fil ustida ketayotgan odamlarga sherning hujumi tasvirlangan bo'lib, bu kompozitsiya o'zining dinamikasi va ajoyib rang gammasi bilan ijodkorning yuksak mahorat egasi ekanligini isbotlaydi. Rassom ishlagan har bir obrazning tugal shaklga ega bo'lishiga, har bir detalni ham iloji boricha aniq va tugal darajada ko'rsatishga intilgan. Kompozitsiyadagi ana shu tomon Panjikent devoriy surati xarakterini eslatadi. Varaxsha saroyini bezashda ganch o'ymakorligi ham keng qo'llanilganligi Markaziy Osiyoda bu san'at qadimiy an'anaga ega bo'lganligini yana bir bor isbotlaydi. O'ymakor naqsh o'ymakorligini bo'rtma tasvir bilan qo'shib ishlaydi. O'simliklar va geometrik shakllardan tashqari, odam va hayvonlar bo'rtma tasviri bu o'ymakorlik mazmunini chuqurlashtiradi.

IX–XII asrlarda Movoraunnahrdagi madaniyat, ilm-fan, san'at va adabiyot islom madaniyati yo'nalishida rivojlandi va taraqqiy etdi. Bu davrda Ahmad al-Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy, Abu Abdulloh Rudakiy, Abdulqosim Firdavsiy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro kabi yuzlab fozillar yashab, ijod qildilar. Bu zabardast daholar – jahon madaniyati yulduzlari qoldirgan meros hano'zgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bu siymolarning falsafiy-estetik qarashlari "ahli dil", "ilmi hayrat", "ilmi hol" va "qol" kabi ta'limotlar tarzida shakllanib, borliqni mushohada etishda, tasviriy san'at asarlarini baholashda ulkan ahamiyat kasb etadi.

1965-yili Samarqand yaqinidan afsonaviy podsho Afrosiyob saroyi qoldiqlarining topilishi katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Bu topilma yana bir bor Markaziy Osiyoda ilk feodalizm asridayoq yuksak madaniyat

vjud bo'lganligini jahonga namoyish etdi. Bu saroy qoldiqlarining devorlariga ishlangan tematik surat va sh kompozitsiyalari yuksak mahorat bilan ishlanganligi bilan kishini hayratlantiradi.

**Xulosa.** Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligida umumiy o'rta ta'lim maktablarida itilayotgan "Tasviriy san'at" darslarida o'quvchilarga arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishining hududiy xususiyatlarini shakllantirish tizimini zamonaviy loyihalash ma'naviy, uminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib yosh avlodni tarbiyalashdek olijanob ishda kuchli manba bo'lishi mumkin. Zamonaviy yoshlar ma'naviyati haqida qayg'urishni hukumatimizning o'quvchilarda arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishining hududiy xususiyatlarini shakllantirishning metodik tizimini takomillatirishga asos bo'luvchi tamoyillarni ishlab chiqishni birinchi navbatda davlat va o'qituvchi zimmasiga yuklaydi.

Shu jihatdan olganda jamiyatimiz kelajagini quruvchi – o'quvchi shaxsining har tamonlama kammal bilim olishini to'liq ro'yobga chiqarish, ularning bilim olish ehtiyojlarini, shu jumladan, tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning arxitektura yodgorliklarida tasviriy va amaliy san'atni qo'llanilishining hududiy xususiyatlarini shakllantirishning amaliy mexanizmlarini, ularning sifatini ta'minlovchi o'quv-oyat resursini yaratish zarurati tug'iladi.

### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, 2017.
2. Boymetov B., Nurtayev U., Tojiyev B. Tasviriy san'at texnologiyasi va nusxa ko'chirish. -T.: "O'qituvchi", 2002. -163 b.
3. Bukina. R.M. Chizmachilik va maxsus rasmlar chizish. -T.: "O'qituvchi", 1998. - 176 b.
4. Zohidov P.Sh. Me'mor olami. -T.: HBM, 1996. -104 b.
5. Umarov A., Ahmedov M. Tasviriy san'at atamalarining izohli lug'ati. -T.: O'zTSMU, 1998. -112 b.